



**TALABALIK DAVRIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNI
SHAKILANTIRISHGA REFLEKSIVLIKNI VA QADIRIYATLAR
YO‘NALGANLIGI O‘RTASIDAGI INTERKORRELYASION ALAQADARLIK**

**BOTIROVA YORQINOY DILSHOD QIZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
YOSHLAR MUAMMOLARINI O‘RGANISH VA ISTIQBOLLI
KADRLARNI TAYYORLASH INSTITUTI DOKTARANTI**

ANNOTATSIYA

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, psixologik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida bir qator omillar — shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit, ta‘lim jarayonining psixologik qo‘llab-quvvatlanishi, motivatsion tizim va ijodiy yondashuvlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi [2]. Talabalik davrida bu omillar ayniqsa intensiv namoyon bo‘ladi, chunki talaba yangi ijtimoiy maqomga ega bo‘ladi, o‘quv va hayotiy faoliyatida mustaqillik ortadi, qaror qabul qilish mas‘uliyati oshadi. Agar bu davrda psixologik madaniyat yetarlicha rivojlanmasa, shaxsning kasbiy o‘zlikni anglashida, ijtimoiy moslashishida va shaxsiy rivojida turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Kalit so‘zi: *kasbiy o‘zlikni anglash, ijtimoiy moslashish, qaror qabul qilish.*

Kirish

Talabalik davri inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, shaxsiy va psixologik madaniyatning faol rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu davrda yoshlarning dunyoqarashi shakllanadi, kasbiy va ijtimoiy identifikatsiyasi mustahkamlanadi, shuningdek, o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi. Psixologik madaniyat esa shaxsning o‘zini va boshqalarni anglash, hissiy-hulqiy holatlarni boshqarish, muomala madaniyatini rivojlantirish kabi ko‘nikmalar majmuasidir.

Ushbu jarayonda refleksivlik — o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va o‘zini takomillashtirishga qaratilgan ongli





faoliyat — muhim o‘rin tutadi. Refleksivlik yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida psixologik madaniyatning shakllanishida oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ta’lim tizimi va milliy qadriyatlar o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlar sifatida talqin etiladi. Masalan, A.R. Aliev psixologik madaniyatni shaxsning oiladagi tarbiyasi va ijtimoiy muhiti bilan bevosita bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, shaxsning psixologik holati va ijtimoiy rivoji o‘zaro aloqador bo‘lib, psixologik madaniyat darajasi oiladagi muhit va ta’lim muassasalarining ta’siriga bevosita bog‘liq [5]. Ushbu fikr shaxsning psixologik rivojida oilaviy omil va ijtimoiy muhitning birgalikdagi ta’sirini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi.

N.M. Usmonova esa psixologik madaniyatning ijtimoiy-ma’naviy va psixo-emosional jihatlariga alohida e’tibor qaratadi. Olimaning fikricha, psixologik madaniyat jamiyatning umumiy psixo-emosional muhitini shakllantiruvchi muhim omil bo‘lib, milliy ma’naviy qadriyatlarni asrash va mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi [6]. Bu yondashuv jamiyatdagi psixo-emosional muvozanatni ta’minlash va aholi ongida sog‘lom ma’naviy qarashlarni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.

X.Sh. Karimov psixologik madaniyatning dinamik tabiatini ilmiy jihatdan yoritib, har bir millatning o‘ziga xos psixologik madaniyati shakllanishida ta’lim va tarbiyaning o‘rnini aniqlashga urinadi. U milliy madaniyat va psixologik jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ochib berib, bunday yondashuv insonlarning tarixiy va madaniy merosini chuqurroq anglashga yordam berishini ta’kidlaydi [6].

M.A. Abdurahmonov psixologik madaniyatni xalqning ma’naviy qadriyatlari, irsiyati va tarbiyasi bilan bog‘liq holda ko‘rib, shaxsning ijtimoiy olamdagi o‘rni, insonlar bilan o‘zaro munosabatlari va madaniy xulq-atvori o‘zaro uyg‘un bo‘lishi lozimligini qayd etadi [2]. Bu qarash jamiyatda psixologik muvozanatni saqlash hamda shaxslararo sog‘lom muloqotni rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Z.R. Sultonov psixologik madaniyatning oilada va ijtimoiy muhitda shakllanishini, shuningdek, uni maktab va boshqa ta’lim jarayonlarida rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [6]. Uning fikricha, oila va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi shaxsning psixo-emosional holatini mustahkamlash va jamiyatda ijobiy ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishga xizmat qiladi.





Muhokama

Tadqiqotimizning navbatdagi metodikasi bu – **A.Karpov** tomonidan ishlab chiqilgan “**Refleksiya darajalarini aniqlash**” metodikasi bo‘lib, biz quyidagi xususiyatlarni aniqlashga harakat qildik.

1. Vaziyatli refleksiya.
2. Retrospektiv refleksiya.
3. Perspektiv refleksiya.

Vaziyatli refleksiya – vaziyatli aks ettirish, haqiqiy vaziyatda inson xulq-atvori bilan bog‘liq holatning namoyon etilishida bevosita ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, uning tarkibiy qismlarini tushunish, tahlil qilish va subyektning o‘z harakatlarini vaziyatga bog‘lash, ularni o‘zgaruvchan sharoit va o‘z holatiga mos muvofiqlashtirish qobiliyatini ta’minlaydi.

Retrospektiv refleksiya – o‘tmishda sodir bo‘lgan hodisalarni tahlil qilish tendensiyasida namoyon bo‘ladi. Ushbu holatda retrospektiv refleksiyaning predmeti sifatida shart-sharoit, bo‘lib o‘tgan voqealar tafsiloti, o‘tmishda qilingan xatolar va motivlari tashkil etadi.

Perspektiv refleksiya – kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyat natijalarini bashoratlash va boshqa shunga o‘xshash funksiyasi bilan o‘zaro bog‘liqdir, xulq-atvor xususiyatlari-o‘z xatti-harakatlari tafsilotlarini puxta rejalashtirish, kelajakdagi hodisalarga bo‘lgan munosabat dinamikasining namoyon etilishini belgilaydi.

Mazkur bobda talaba faoliyatida bevosita namoyon bo‘luvchi refleksiv jarayonlar sharhiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Chunonchi, refleksiya shaxsning ijtimoiy ustanovkalarni anglashi va ijtimoiyng yaxlit - **Men** obrazini tuzish, ichki dunyosining tuzilishi va mazmunini oshishga yo‘naltirilgan subyektning ijtimoiy ustanovkalarni bilish jarayonidir. Refleksiya meta kognitiv jarayon sifatida inson tafakkurining tamoyili bo‘lib, shaxsning o‘z imkoniyatlarini tushunishi va anglashi, uning mazmuni, metodi va bilish natijalarini tanqidiy tahlil qilishga asoslangan psixologik jarayondir. Olingan ma’lumotlar tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, umumiy hisobda barcha respondentlardan olingan eng yuqori natija bu refleksiyaning o‘rta darajasi bo‘lib, talabalarning 122 (39,3%) nafari ushbu darajaga mansubligi aniqlandi. Eng quyi





ko'rsatkich esa 113 (36,2%) nafari tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki, talabalardagi refleksiya darajalari nisbatan korreksiya ishlarini olib borishni talab etadi.

- jadval

Talaba-yoshlarda refleksiya darajalari namoyon bo'lishining umumiy ko'rsatkichlari

Talabalarda refleksiya darajalari	Respondentlar soni	
o'rta		

Endi bevosita refleksiya darajalarining gender tafovutlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda 3 ta refleksiya darajalaridan yigitlarda "vaziyatli refleksiya" 24,4 foizni, "retrospektiv refleksiya" 33,7 foizni, "perspektiv refleksiya" esa 41,9 foizni tashkil etdi. Ushbu metodika natijalari qizlarda quyidagicha namoyon etildi, bunda, "vaziyatli refleksiya" 16,8 foiz, "retrospektiv refleksiya" 44,3 foiz, "perspektiv refleksiya" 38,9 foizga mansub ekanligi aniqlandi. Ushbu tahlillar shuni anglatadiki, yigitlarda refleksiyaning eng yuqori ko'rsatkichi 41,9% ni ("perspektiv refleksiya"), eng past ko'rsatkich esa 24,4% ("vaziyatli refleksiya") ko'rsatgan bo'lsa, qizlarda esa eng yuqori ko'rsatkich 44,3% ("retrospektiv refleksiya"), eng past ko'rsatkich 16,8% ni nisbatan kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyat natijalari va ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish qilish bilan bog'liq ijtimoiy-kutilmalar ustunlik qilar ekan. Qizlarda esa yigitlarga nisbatan o'tmishda sodir bo'lgan hodisalarni tahlil qilish, bo'lib o'tgan voqealar tafsiloti, o'tmishda qilingan xatolardan ijtimoiy xulosalar chiqarishga moyillik belgilar yetakchi motivatsiya sifatida namoyon etilar ekan. qadriyatlar respondentlar orasida nisbatan kam ahamiyatli deb topilgan. Ya'ni, tabiat bilan uyg'un hayot, tinchlik, sevgi va xavfsizlik kabi qadriyatlar ularning hayotiy maqsadlari orasida pastroq o'rinda turibdi.

Buning ortida turli sabablar bo'lishi mumkin:

Jamiyatda tinchlik va xavfsizlik muammo emas deb qabul qilinayotgan bo'lishi, ularning qadri kamroq his qilinayotganini ko'rsatadi.





Sevgi va tabiat bilan uyg'un hayot shaxsiy hayotga oid, ichki ehtiyoj sifatida e'tirof etilsa-da, amaliy jihatdan ikkinchi darajaga tushib qolgan.

Mustaqillik va aktiv hayot ham shaxsiy yoki individual qadriyatlar sifatida ijtimoiy maqom, farovonlik, oila kabi ommaviy qadriyatlar orqali orqaga surilgan.

Talabalarda maqsadli (terminal) va kam ahamiyatli qadriyatlarning o'rn

6

Talabalar	Maqsadli qadriyatlarning ahamiyatlilik o'rnini tanlash (% da)					
	1-o'rin	2-o'rin	3-o'rin	4-o'rin	5-o'rin	6-o'rin
GulDU						
Kattaqo'rg'on DPI						
QarDU						
T a	Maqsadli qadriyatlarning kam ahamiyatlilik o'rnini tanlash (% da)					
G						
Kattaqo'rg'on DPI						
QarDU						

Natija

Bu o'zgarishlar psixologik trening va ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlarning samaradorligini isbotlaydi. Talabalarda noodatiy fikrlash, muammoni yangicha hal etish, ijodiy faoliyatda tashabbus ko'rsatish kabi ko'nikmalar rivojlangan.

3--jadval.

Talaba-yoshlarda refleksiya darajalari namoyon bo'lishining umumiy ko'rsatkichlari (eksperimentdan oldin va keyin)





O'rta			

T
a B
X

q
d

3.15-jadval

q Talabalarda maqsadli (terminal) va kam ahamiyatli qadriyatlarning o'rni
y darajalarining ifodalanishi (GulDU, Kattaqo'rg'on DPI va QarDU misolida,
b eksperimentdan oldin va keyin)

q Maqsadli qadriyatlarning ahamiyatlilik o'rni tanlanishi (% da)

	1-o'rin	2-o'rin	3-o'rin	4-o'rin	5-o'rin	6-o'rin
Kattaqo'rg'on DPI (oldin)						
Kattaqo'rg'on DPI (keyin)						

R

d Maqsadli qadriyatlarning kam ahamiyatlilik o'rni tanlanishi (% da)

	11-o'rin	14-o'rin	16-o'rin	5-o'rin	10-o'rin	1-o'rin
Kattaqo'rg'on DPI (oldin)						
Kattaqo'rg'on DPI (keyin)						





--	--	--	--	--	--	--

O'tkazilgan eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar orasida maqsadli (terminal) qadriyatlarning ahamiyati sezilarli darajada oshgan. Eksperimentdan oldin GulDU, Kattaqo'rg'on DPI va QarDU talabalari orasida qadriyatlarning birinchi va ikkinchi o'rinlarga qo'yilishi pastroq bo'lsa, treninglardan so'ng ularning 1–3-o'rinlarda tanlanishi keskin ortgan. Masalan, GulDU talabalari orasida 1-o'rin 32,3% bo'lgan bo'lsa, eksperimentdan keyin bu ko'rsatkich 41,8% ga ko'tarildi. Xuddi shunday Kattaqo'rg'on DPI va QarDUda ham yuqori pog'onadagi qadriyatlarni tanlash darajasi ortgan.

Xulosa

Avvalo, refleksivlik talabalarda o'z-o'zini anglash, shaxsiy tajribani tahlil qilish hamda hayotiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Refleksivlikning shakllanishi talabaning ichki dunyosini boyitib, uning psixologik madaniyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, talabalik davrida psixologik madaniyat va qadriyatlar yo'nalganligi o'rtasidagi interkorrelyasion bog'liqlik ham alohida e'tiborga loyiqdir. Qadriyatlarning mazmuni va ular talaba hayotidagi o'rni shaxsning psixologik madaniyat darajasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, insoniy qadriyatlarni chuqur anglagan, ularni o'z hayotiy faoliyatida qo'llay oladigan talabalar psixologik madaniyatda ham yuksak darajaga erishadilar.

Bundan tashqari, talabalarda psixologik madaniyatni rivojlantirish uchun psixoprofilaktik chora-tadbirlarning samarali tashkil etilishi zarurdir. Psixologik treninglar, maslahatlar, stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari talabalarning shaxsiy barkamolligini oshirish, ularni sog'lom ijtimoiy muhitga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, psixologik madaniyatni rivojlantirish – bu faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki shaxsiy tajribani chuqur anglash, ijtimoiy qadriyatlarga sodiqlik, o'zini va boshqalarni tushunish, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashuvchanlikni talab etadigan jarayondir. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida psixologik madaniyatni rivojlantirishga kompleks yondashuvni amalga





o'shinish kelajak mutaxassislarining barkamol, yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Дёмина Л.Д. Структурно-образующие компоненты психологической культуры преподавателя высшей школы РФ // Известия Алтайского государственного университета. –2008. – №2.
2. Дубровина И. В. Практическая психология образования : учеб. пособие 4-е изд. СПб. : Питер,2004.
3. Ergashev Z.N. «Psixologik madaniyat va tarbiya». – Toshkent, 2019.
4. Григорьева Т.Г., Линская Л.В., Усольцева Т.П. Основы конструктивного общения. – Новосибирск: Изд-во Новосиб. Ун-та, 1999. – 173с.
5. Гуревич П.С. Философия культуры [Текст] / П. С. Гуревич. - Ростов н/д: Феникс, 2002. - 315 с.
6. Истратова О.Н., Эксакусто Т.В. Справочник психолога начальной школы. – Ростов-на-Дону, 2004 – 438с.
7. Истратова О.Н., Эксакусто Т.В. Справочник психолога средней школы. – Ростов-на-Дону, 2004 – 512с.
8. Izard K.E. Psixologiya emotsiy [Tekst]. – SPb.: Piter, 2000. – 87 s.
9. Ibragimova O'.O'. «Psixologik madaniyat va ta'lim». – Toshkent, 2017.
10. Ismoilov T.R. «Psixologiya va madaniyat o'rtasidagi aloqa». – Toshkent, 2014.
11. Ikramov S.A. «Psixologik madaniyat va ijtimoiy rivoj». – Toshkent, 2015.
12. Коломинский, Я.Л. Социальная психология развития личности. – Минск, 2009. – 336 с.

